

VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakillantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 10 080 tani tashkil etmoqda, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 39 ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 10 041 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosi da yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 35 916,8 mlrd so'mni, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 4 187,1 mlrd so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 31 729,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 117,6 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 934,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 107,3 %) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami * mlrd so‘m	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so‘m	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd so‘m	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	35 916,8	108,0	4 187,1	66,6	31 729,7	117,6
Samarqand sh.	11 783,6	108,7	2 112,9	53,8	9 670,7	139,9
Kattaqo‘rg‘on sh.	1 285,0	104,9	1,6	107,0	1 283,4	104,9
Oqdaryo	801,7	108,1	7,1	32,4	794,6	110,4
Bulung‘ur	2 442,9	108,4	395,0	116,0	2 047,9	107,0
Jomboy	1 247,4	108,3	8,2	6,1	1 239,1	121,7
Ishtixon	1 332,7	108,4	8,3	117,6	1 324,4	108,3
Kattaqo‘rg‘on	1 332,4	106,6	70,7	115,3	1 261,6	106,2
Qo‘shrabot	702,1	107,3	6,0	108,7	696,1	107,3
Narpay	1 713,7	108,2	7,9	100,2	1 705,8	108,2
Payariq	1 061,5	107,2	9,3	114,9	1 052,2	107,1
Pastdarg‘om	1 192,8	107,0	48,8	99,6	1 144,0	107,3
Paxtachi	638,3	107,2	6,3	88,2	632,0	107,5
Samarqand	3 987,6	109,3	1 091,1	94,1	2 896,5	116,4
Nurobod	516,3	106,5	6,0	107,8	510,3	106,4
Urgut	3 530,6	107,8	66,5	122,1	3 464,2	107,5
Toyloq	1 018,2	106,3	21,3	98,7	996,8	106,5

**)Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan Samarqand shahrida (108,7 %) va Samarqand (109,3 %), Bulung‘ur (108,4 %), Ishtixon (108,4 %), Jomboy (108,3 %), Narpay (108,2 %), Oqdaryo (108,1 %), hamda Urgut (107,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovaraylanmasi hajmi, statistik hisob-kitoblarga ko‘ra 31 729,7 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 17,6 % ga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,3 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar, foizda



Yirik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 66,6 % ni va 4 187,1 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,7 % ulushiga to‘g‘ri keldi.

**AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

Hududlar kesimida ma‘lumot

	Hajmi mlrd so‘m	O‘shish sur‘atlari, foizda
Samarqand viloyati	8 445,0	105,7
Samarqand sh.	19 955,3	106,5
Kattaqo‘rg‘on sh.	13 469,6	103,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	4 575,8	105,6
Bulung‘ur	11 951,8	105,9
Jomboy	6 503,4	105,7
Ishtixon	4 775,0	106,0
Kattaqo‘rg‘on	4 489,0	104,5
Qo‘shrabot	4 906,6	105,4
Narpay	7 466,9	106,3
Payariq	3 837,7	104,7
Pastdarg‘om	3 076,6	104,6
Paxtachi	4 161,2	105,6
Samarqand	14 463,4	107,1
Nurobod	3 144,3	104,4
Urgut	6 239,0	105,2
Toyloq	4 551,4	103,8

Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-dekabr holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 8 445,0 ming so‘mni (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,7 % ni) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatgichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (19 955,3 ming so‘m), Samarqand tumani (14 463,4 ming so‘m), Kattaqo‘rg‘on shahri (13 469,6 ming so‘m) va Bulung‘ur (11 951,8 ming so‘m) tumani hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha
chakana tovar aylanmasi**

	<i>mldr so'm</i>	<i>2023-yil yanvar- dekabrga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	35 916,8	108,0	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	35 916,8	108,0	100,0
undan fuqarolarning hususiy mulki	-	-	-


Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-dekabrda 17 405,8 mlrd so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,1 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning jami chakana savdo hajmi 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 18 511,0 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,0 foizga o'sdi.


2024-yilning yanvar-dekabrda chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mldr so'm</i>	<i>2023-yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	35 916,8	108,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	17 405,8	103,1	48,5
Norasmiy sektor	18 511,0	113,0	51,5
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	2 934,8	107,3	8,2

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 1 153,5 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (470,7 mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 781,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har hil yoshdagi qora mollar savdosi 1 428,2 mlrd so'mni, qo'y va echkilar 267,7 mlrd so'mni, otlar 75,3 mlrd so'mni, parrandalar 10,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining asosiy tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA
(PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI**


	Jami mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd so'm	2023-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	2 934,8	107,3	1 153,5	103,9	1 781,3	109,6
Samarqand sh.	249,4	134,9	190,8	119,6	58,6	2,3 m.
Kattaqo'rg'on sh.	289,9	93,5	109,5	86,6	180,4	98,2
tumanlar:						
Oqdaryo	164,7	103,0	10,7	75,2	154,0	105,8
Bulung'ur	254,8	112,4	92,9	155,1	161,9	97,1
Jomboy	212,0	104,2	109,9	66,7	102,1	2,6 m.
Ishtixon	229,6	102,2	132,2	119,4	97,4	85,5
Kattaqo'rg'on	217,9	112,5	108,4	167,7	109,5	84,9
Qo'shrabot	132,9	104,2	25,8	95,4	107,1	106,6
Narpay	120,6	109,8	63,6	122,0	57,0	98,7
Payariq	233,5	115,0	66,0	90,1	167,5	129,0
Pastdarg'om	93,5	88,8	10,7	104,3	82,8	87,1
Paxtachi	140,4	103,9	52,2	120,0	88,2	96,3
Samarqand	126,6	131,1	15,0	170,2	111,6	127,2
Nurobod	132,5	113,7	19,3	58,7	113,2	135,3
Urgut	164,4	104,4	85,0	87,7	79,4	131,2
Toyloq	172,1	95,2	61,5	94,5	110,6	95,5

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 27 235,6 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 115,2 % ni tashkil qildi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 16 742,5 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 61,5 % ni tashkil qildi.

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
VA KICHIK KORXONALAR**

Ulgurji savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (118,9 %) va Bulung'ur (123,0 %), Samarqand (117,1 %), Pastdarg'om (115,6 %), Ishtixon (110,9 %) hududlarida kuzatildi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 877 tani, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 33 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 844 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm *	2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd so'm	2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	27 235,6	115,2	10 493,1	131,0	16 742,5	107,1
Samarqand sh.	16 462,9	118,9	7 768,1	135,0	8 694,9	107,5
Kattaqo'rg'on sh.	495,9	108,6	0,4	109,5	495,5	108,6
tumanlar:						
Oqdaryo	684,6	109,3	-	-	684,6	109,3
Bulung'ur	725,5	123,0	621,1	127,2	104,4	103,2
Jomboy	438,2	100,4	28,6	23,9	409,6	129,4
Ishtixon	193,1	110,9	-	-	193,1	110,9
Kattaqo'rg'on	541,4	108,1	-	-	541,4	108,1
Qo'shrabot	57,6	110,0	0,06	30,5	57,5	110,3
Narpay	250,0	109,5	0,3	63,8	249,6	109,6
Payariq	161,4	110,1	-	-	161,4	110,1
Pastdarg'om	994,2	115,6	274,2	158,0	720,0	104,9
Paxtachi	26,1	104,1	0,06	22,2	26,0	105,0
Samarqand	2 243,2	117,1	641,8	146,2	1 601,4	108,4
Nurobod	121,2	105,2	24,5	116,4 m.	96,8	84,1
Urgut	829,2	110,2	-	-	829,2	110,2
Toyloq	1 148,5	95,2	416,4	91,3	732,1	97,6

*)Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda